



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SENSOR RIVOJLANTIRISH

Ibragimova Lola Sayfitdinovna

Yangi asr universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor rivojlantirish orqali aqliy takomillasdhisga eshirish yo‘llari haqida to‘xtanilgan. Ilk bolalik davridagi qobiliyatlari, bolalarning predmetlar bilan munosabatlarining xususiyatlari, bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar ochib berilgan. Bolalarda idrokning rivojlanishi uchun ota-onalar amal qilishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘z va iboralar: maktabgacha, rivojlanish, sezgi, sensor, idrok, geometrik shakllar, ilk bolalaik, qobiliyat.

Annotation This article discusses ways to develop the mental development of preschool children through sensory development. The abilities of early childhood, the characteristics of children's relationships with objects, and corrective work with children are revealed. The work that parents should do to develop perception in children is indicated.

Keywords and phrases: preschool, development, sensory, sensory, perception, geometric shapes, early childhood, ability.

Аннотация В данной статье рассматриваются способы, с помощью которых можно помочь дошкольникам развивать свои умственные способности посредством сенсорного развития. Раскрываются возможности раннего детства, особенности взаимоотношений детей с предметами, коррекционная работа, проводимая с детьми. В нем излагаются шаги, которые следует предпринять родителям для развития познавательных способностей детей.

Ключевые слова и фразы: дошкольный возраст, развитие, интуиция, сенсорика, восприятие, геометрические фигуры, раннее детство, способности.

Kirish. Maktabgacha davrda sensor rivojlanish deganda sezgilar, idroklar, tasavvurlarning takomillashuvi tushuniladi. Bu yoshda bolalarda ko‘rish qobiliyatining kuchliligi va ranglarni farqlash aniqligi ortadi, fonematik eshitish va tovushlar balandligini eshitish qobiliyati rivojlanadi, predmetlar og‘irligini baholash aniqligi ancha ortadi.

Sensor rivojlanish natijasida bola perseptiv xatti-harakatlarni o‘zlashtirib boradi. Ularning asosiy funksiyasi ob‘ektlarni o‘rganib chiqish va ulardagi o‘ziga xos xususiyatlarni ajratib olish, shuningdek sensor qoliplar (etalonlar)ni, predmetlar xususiyatlari va munosabatlarining umum qabul qilingan namunalarini o‘zlashtirishdan iborat. Maktabgacha

yoshdagi bola nisbatan oson o‘zlashtirib oladigan sensor qoliqlar bu geometrik shakllar (kvadrat, uchburchak, doira) va spektr ranglaridir.



Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ilk bolalik va o‘rta maktabgacha yoshda bolalarda sensor qoliqlar – rang, geometrik shakllar, bir nechta predmetlar o‘rtasida katta-kichiklik bo‘yicha munosabatlar haqida barqaror, nutqda mustahkamlangan tasavvurlar shakllanadi. Bu jarayon bilan bir paytda bolalar predmetlarni tadqiq etib, o‘rganib chiqish usullarini, masalan, predmetlarning rangi, shakliga qarab, ularni namuna-qolip atrofida guruhlashtirishni, yanada murakkabroq xatti-harakatlarni bajarishni ham o‘zlashtirib boradilar. Bu davrda bolalarda analitik idrokni (ranglar birikuvini anglash, predmetlar shaklini qismlarga bo‘lish, ayrim kattaliklarni ajrata olish malakalarini) rivojlantirish zarurati alohida masala sifatida ajralib chiqadi.

Besh va olti yoshli bolalarda predmetni yanada muntazam va izchil tadqiq etish va tavsiflashga intilish ko‘zga tashlanadi. Ular predmetni ko‘rib chiqishar ekan, uni qo‘llarida aylantirib ko‘radilar, paypaslaydilar va bu jarayonda tadqiq etilayotgan predmetning eng sezilarli xususiyatlariga e‘tibor beradilar. Yetti yoshga kelibgina bolalar o‘rganilayotgan predmetni qo‘llariga olib ko‘rishga ehtiyoj sezmaydilar, ular ko‘rish idrokidan foydalanib, predmet xususiyatlarini to‘liq tavsiflay oladilar.

Sensor protsessalari ayniqsa, ilk bolalikda alohida ahamiyatga ega bo‘ladi chunki voqealikdagi narsa va hodisalarning shakli, katta-kichikligi, rangi va boshqa xossalarini to‘g‘ri va aniq idrok qilish qobiliyati ayni shu ilk va maktabgacha tarbiya yoshi davrida tez rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, qog‘oz va matodan qirqib narsa yasash va loy yoki plastilindan biror narsa yasash vaqtida avvalo bu narsalarni shaklan farqlay olishlari kerak. Bolalar 3-4 oyligidayoq hajmli shuningdek, yassi narsalarni tekshirish va ularning xossalarini aniqlash qobiliyatlari ancha keyinroq bolaning individual rivojlanishi protsessida vujudga keladi.

Katta maktabgacha yoshda savod o‘rganishda fonematik eshitish, aniqroq aytadigan bo‘lsak, nutq tovushlarini ajratish katta rol o‘ynaydi.

Ma'lumki, idrok qilish sezish natijasida aqliy harakatlar narsa va hodisalarning xususiyatlarini analiz hamda sintez qilish, umumlashtirish va abstraksiyalash protsessi yuzaga keladi bu esa bilish faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Sensor harakatlarning rivojlanishi darajasi bolaning qobiliyatlari shakllanayotganida hamda muayan bilimlarini va ayrim amaliy ko'nikmalarini egallash jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bolada shakl va bo'yoqlarni idrok qilish qobiliyati rivojlangan bo'lsa, u tevarak atrofdagi narsalarning xossalarini har tomonlama ko'ra biladi va his qila oladi. Bu esa ularning tasvirlash, rasm chizish, loydan, qog'oz matodan qirqib har xil narsa yasash hamda qurish-yasash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Sensor tarbiya aqliy tarbiyaning bir bo'lagi bo'lib, bolaning sezgi a'zolari va idrokini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish va mukammallashtirishdir.

N.M.Shilovanov bilan N.M.Aksarina ilk yoshni "sensor taraqqiyotining oltin davri" deb ataydilar va bolalarda sensor madaniyatni ular hayotining dastlabki oylaridan boshlaboq shakllantirib borish zarurligini alohida ta'kidlaydilar. Hozirgi psixologik va fiziologik ishlar shuni ko'rsatmoqdaki, idrok o'ziga xos mo'ljallovchi harakatdan iborat aktiv protsess bo'lib u narsani tekshirishga uning xususiyatlarini va xossalarini aniqlashga qaratilgan. Bola ikki-uch yoshida deb yozadi L.A.Venger o'zining sensor rivojlanishda muhim qadam qo'yishi lozim, ya'ni u buyumlar o'rtasida, ularning shakli katta-kichikligi bo'shliqdagi holati, rangi va boshqa xossalari bo'yicha mavjud bo'lgan munosabatlarni belgilab chiqishi o'rgatilishi kerak.

Sensor rivojlanishning mazmuni va metodlari idrokning mohiyati va uning bolalarda rivojlanishi haqidagi bir qator muhim ilmiy qoidalarga asoslanadi. Bular quyidagilar:

1) sezgilar va idrok retseptor jarayonlar sifatida emas, balki reflektor jarayonlar sifatida olib qaraladi. Bu degani, sezgi va idrok predmetning alohida sifatlarini yoki bir butun predmetni ko'zguda aks ettirgandek passiv xarakter kasb etmaydi, balki analizatorlarning predmetni va uning xususiyatlarini tadqiq etishga yo'naltirilgan alohida xatti-harakatlari sifatida olib qaraladi. Idrok rivojlanishining o'zi bola tomonidan sensor xatti-harakatlarni o'zlashtirishning uzoq yo'li sifatida olib qaraladi;

2) bolada idrokning rivojlanishi ijtimoiy sensor tajribani o'zlashtirish jarayoni, kattalar ta'sirida avval mavjud bo'lmagan yangi sensor qobiliyatlarning shakllanish jarayoni sifatida olib qaraladi. Avvalam bor bola atrof olamni adekvat (xuddi o'zidek) bilishni ta'minlaydigan usullar sifatida insoniyat tomonidan belgilab qo'yilgan perseptiv (tekshiruvchi, o'rganuvchi) xatti-harakatlar tizimini o'zlashtiradi. Keyin esa u etalonlar (qoliplar) tizimlarini o'zlashtiradi hamda ulardan o'zining sensor tajribasi uchun sifat o'lchovlari kabi foydalanishga o'rganadi (geometrik shakllar tizimi, ranglar tizimi, kattaliklar, materiallar, tovushlarning balandligi tizimlari; nutqda talaffuz normalari; yo'nalishlar tizimi va h.k.);

3) idrok mazmunli faoliyat jarayonida rivojlanadi: bola hayotining birinchi yilida u bolaning predmetli faoliyati bilan bog'liq bo'ladi, keyinchalik esa yanada murakkabroq faoliyat turlari (tasviriy, qurish-yasash, o'yin, mehnat, o'qish) bilan bog'liq bo'ladi. Bolaning sensor

rivojlanishi va unda har xil faoliyat turlarining rivojlanishi bir-biri bilan yaqindan bog‘liq va bir-birini belgilaydi. [1]

Barcha bilish jarayonlari qatorida sezgi va idrok bir butun bilish jarayonida axborotning dastlabki manbai vazifasini bajaradi: sezgilar asosida idrok, keyin xotira, nutq rivojlanadi, idrok esa tafakkur fundamenti bo‘lib xizmat qiladi. Bu ayniqsa maktabgacha yoshda aniq namoyon bo‘ladi. Bu davrda bolaning olam bilan tanishuvida sensor jarayonlar yetakchilik qiladi.

Uch yoshdan boshlab, bolalarning sensor tarbiyasida ularni umum qabul qilingan sensor qoliqlar va ulardan foydalanish usullari bilan tanishtirish bosh o‘rin egallaydi.

Shunday qilib, G.A.Uruntayeva aytganidek, ilk bolalik davrida sensor rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- tashqi xatti-harakatlarning yangi turi – moslash, chamalash, mo‘ljallash qaror topadi, keyinchalik predmetlarning belgilari bo‘yicha ularning o‘zaro aloqalarini ko‘rish orqali aniqlash yuzaga keladi;

- predmetlarning xususiyatlari haqidagi tasavvurlar yuzaga keladi;

- predmetlar xususiyatlarining o‘zlashtirilishi ularning amaliy faoliyatdagi qimmatini bilan belgilanadi.

L.Metieva va E.Udalov maktabgacha yoshdagi sensor tarbiyaning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadilar:

- ko‘rib idrok etishlar atrof muhit bilan tanishishda yetakchi o‘zini egallaydi;

- sensor qoliqlar (etalonlar) o‘zlashtiriladi;

- idrokning maqsadga yo‘nalganligi, rejaga asoslanganligi, boshqarilishi, ongilligi ortib boradi;

- nutq va tafakkur bilan aloqa o‘rnatilishi evaziga idrok intellektuallashadi. [2]

Shunday qilib, har bir yosh davrida sensor rivojlanish o‘z xususiyatlariga ega bo‘ladi. Go‘daklik va ilk bolalik davrida rang, shakl, katta-kichiklik haqidagi tasavvurlar to‘planib boradi. Bolalar bu tushunchalarning barcha turlari – spektr ranglari, geometrik shakllar bilan tanishib boradilar; bolalarda bilish malakalari, ya‘ni ko‘rish, sezish, harakatlanish idroklari orqali predmetlarni o‘rganish, solishtirish yo‘li bilan ularning rangi, shakli, katta-kichikligini aniqlash malakalari rivojlanadi; nutq malakalari rivojlanadi, ya‘ni bola so‘zlarning ma‘nosini tushunish va o‘z nutqida ulardan foydalanishga o‘rganadi.

Bolaning sensor rivojlanishi deganda predmetlarning tashqi xususiyatlari haqidagi tasavvurlarining shakllanishi va bola idrokining rivojlanishi tushuniladi: predmetlarning shakllari, rangi, xajmi, fazodagi holati, shuningdek hidi, mazasi va h.k.ni ajratishi.

Sensor rivojlanish, bir tomondan, bolaning umumiy akliy rivojlanishining poydevorini tashqil etsa, boshqa tomondan, maktabgacha tarbiya muassasasi va maktabda bolaning samarali ta‘lim va tarbiya olishida muhim o‘rin egallaydi. Bunda bolaning mehnat faoliyati yetakchi o‘rin egallaydi.

Atrof olam predmet va xodisalarini idrok etish orqali ularni anglash boshlanadi. Boshqa barcha anglash shakllari – xotira, tafakkur, tasavvur idrok obrazlari asosida quriladi, ularni

qayta ishlash natijasi hisoblanadi. Shuning uchun normal akliy rivojlanish idrokka to‘liqligicha tayanmay namoyon bula olmaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida bolalar rasm chizishga, yopishtirishga, qurish, yasashga o‘rganadilar, tabiat hodisalari bilan tanishadilar, matematika va savod asoslarini o‘zlashtira boshlaydilar. Barcha sohalarda bilim va malakaga ega bo‘lish, doimiy ravishda atrofdagi predmetlar xususiyatlariga nisbatan e‘tiborli bo‘lishni, ularni xisobga olish va ulardan foydalanishni talab etadi. Chunki, predmetning rasmini chizish uchun bola uning shakl va rangining o‘ziga xosligini aniqlashi, chizilgan rasm bilan aslining o‘xshash tomonlarini ko‘ra olishi kerak.

Qurish - yasash predmet shaklini (ko‘rinishini), uning tuzilishini o‘rganishni talab qiladi. Bolalar qismlarni fazodagi o‘zaro munosabatini aniklaydilar va namuna xususiyatlarini mavjud material xususiyatlari bilan moslashtiradilar. Predmetlarning tashqi xususiyatlarida doimiy mo‘ljol olmay turib, jonli va jonsiz tabiat xodisalari haqida yorqin tasavvur olish mumkin emas. Elementar matematik tasavvurlarni hosil qilish deganda, geometrik shakllar bilan tanishish va ularning turlarini bilish, ob’ektlarni xajmiga kura taqqoslash tushuniladi.

Bolaning maktabda ta’lim olishga tayyorgarligi uning sensor rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Psixologlar tomonidan olib borilgan izlanishlarning ko‘rsatishicha, bolalarning ta’limda (asosan 1-sinfda) duch kelishi mumkin bo‘lgan kiyinchiliklari idrokning yetarli darajada aniq va egiluvchan emasligi sababli yuz beradi, natijada harflarni yozishda xatoliklar, rasm chizish va qo‘l mehnati darslarida narsalar yasashdagi aniqsizlik xolatlari uchraydi.

Sensor tarbiya bolaning kelajak hayoti uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligiga amin bo‘ldik. Bu maktabgacha tarbiya nazariyasi va amaliyoti oldiga maktabgacha tarbiya muassasasida qo‘llash uchun yangi va samarali ta’lim-tarbiya vositalari va usullarini ishlab chiqish vazifasini qo‘yadi. Sensor tarbiyaning muhim yo‘nalishi bolada sensor madaniyatni rivojlantirishga qaratilishi kerak. Sensor tarbiya aqliy tarbiyaning bir bo‘lagi bo‘lib, bolaning sezgi a’zolari va idrokini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirish va mukammallashtirishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mo‘minova.L.P. Amirsaidova Sh. va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
2. Немов Р.С. Психология: Учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: Гуманит. Изд. Центр ВЛАДОС, 1999.
3. Нищева Н.В. Система коррекционной работы в логопедической группе для детей с общим недоразвитием речи. – СПб.: 2001.